



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda Kichik biznes raqobatbardoshligini baholovchi sun'iy intellekt kompozit indeksi	159
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Iltom Begmatdulobovich Mattiyev Stressni boshqarish va sog'lom hayot tarzi odatlari	163
Nargiza Muzafarovna Babaeva Biznesni muvaffaqiyatli bo'lishida ta'lim va tajribaning ta'sir darajasi tahlili	167
Камилла Бахромовна Суюнова, Шахзода Абборовна Фаилова Маркетинг инноваций как фактор динамического роста отраслей экономики Узбекистана	172
Xilola Nematovna Ochilova Lavozimlar greydingining mohiyati hamda davlat va nodavlat tashkilotlarida lavozimlar greydingi tizimini qo'llanilishi	176
Nigina Ma'rufovna Usmanova, Abdulxofiz Jamshid o'g'li Hamrayev Sun'iy intellektning inson resurslarini boshqarishni takomillashtirishga ta'siri	182
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov Korxonada xodimlarini boshqarishda KPI tizimidan samarali foydalanish yo'llari	188
ИНВЕСТИЦИЯ ВА РЕЖАЛАШТИРИШ	
Насиба Акбаржонова Усманова, Жахонгир Санжарович Каримов Проблемы при планировании проекта. иерархическое распределение работ как ключ к решению	191
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Rahmonkul Hamidovich Djalilov Respublikamizda bilvosita soliqlar auditining nazariy masalalari	195
Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова, Хушвақт Мансурович Ёдгоров Фармацевтика корхоналарининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги ташкилий-ҳуқуқий масалалари	198
Анвар Нематович Холиқулов, Азамат Ҳамроқулович Рахимов Автомобиль сервис билан шуғулланадиган субъектларнинг самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичларнинг омилли таҳлили	203
Olimjon G'ayrat o'g'li Fattoyev Aholi daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirish	207
Насиба Акбаржонова Усманова, Асель Армановна Сулейманова Анализ востребованных компетенций на рынке труда и их влияние на HR-стратегии компаний.	211
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Akram Abduraxmonovich Azizqulov G'azzoliy ta'lim jarayonida shogirdning odobi xususida . (Abu Homid G'azzoliyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida shogird odobi xususida)	215
Sarvar Ayubovna Isxakova, Shaxzoda Shuxratovna Amriyeva Oliy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish yo'nalishlari	220
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибоевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев Метод ва методологиянинг мазмуни ва фарқлари Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари	225

БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ

Rahmonkul Hamidovich Djalilov – Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, (PhD)

RESPUBLIKAMIZDA BILVOSITA SOLIQLAR AUDITINING NAZARIY MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq tizimida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan korxonaning soliq hisoboti va uning ishonchliligini tasdiqlash, davlat organlari tomonidan qo‘shimcha hisoblanishi mumkin bo‘lgan soliqlar va jarimalar shaklida budjetga to‘lovlar maqsadida mustaqil tekshirishlarning huquqiy va nazariy jihatlarini o‘rganilgan. Shuningdek soliq auditi to‘g‘risida mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlari: soliq tizimi, soliq nazorati, soliq hisoboti, soliq auditi, soliqlar va jarimalar, auditning raqamli transformatsiyasi, soliqqa tortish, auditorlik tashkilotlari.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079 sonli Farmonining qabul qilinishi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o‘tishning strategiyasini belgilab berdi. “Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasi bevosita soliq auditini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-282 son qarorining “YO‘L XARITASI”da auditorlik faoliyati va ichki audit tadbirlarini o‘tkazishni takomillashtirish masalalari belgilab berildi¹. Yuqoridagi me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarda auditning, shu jumladan soliq auditining nazariy masalalarini qayta ko‘rib chiqish zaruriyati tug‘iladi.

Hozirgi sharoitda zamonaviy auditning nazariy muammolari ko‘p qirrali bo‘lib, audit amaliyoti moliyaviy nazoratda o‘zining asosiy rolini bajarishda davom etishini ta‘minlash uchun nozik tushunchani talab qiladi. Asosiy muammo an‘anaviy audit metodologiyalarini texnologik uzilishlar, transchegaraviy operatsiyalar va real vaqt rejimida moliyaviy hisobotlarni taqdim etish zarurati bilan ajralib turadigan tez rivojlanayotgan biznes talablari bilan muvofiqlashtirish zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Soliq auditining nazariy masalalari uning soliq xavflarini aniqlash va soliqni hisoblashning to‘g‘riligini, uning maqsadlari, vazifalari va turlarini tasdiqlash uchun soliq hisobotini mustaqil baholash sifatida belgilashni, shuningdek, soliq tizimini baholash mezonlarini va audit o‘tkazish uchun moliyaviy hisobotni, shu jumladan jarayonda qo‘llaniladigan usullar va standartlarni shakllantirishning nazariy asoslarini o‘z ichiga oladi.

Z.N.Kurbanovning fikricha, “Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi asosida buxgalteriya hisobiga yangi talablar qo‘yiladi va uning yangi obyektlari namoyon bo‘ladi. Masalan, “Kriptoalyuta”, “BlockChain”, “Bitcoin” va boshqalar. “Blokcheyn — ma‘lumotlarni saqlash uchun taqsimlangan reyestr...” degan ma‘noda ishlatiladi”². Demak, buxgalteriya hisobining obyektlarida o‘zgarish ro‘y bersa, auditning obyektlarini o‘zgarishiga ta‘sir qiladi.

V.V.Pankovning yozishicha, hisobotlardagi axborotlarga nisbatan o‘tkazilayotgan an‘anaviy audit hozirgi talablarga javob bermay qoldi. Shuning uchun yangi qarorlar qabul qilishni izlash vaqti keldi³. O‘zining fikrini davom etirib V.V.Pankov, kelajakdagi auditning metodologiyasi tavakkalchilikka yo‘naltirilgan konsepsiyaga asoslanadi degan xulosaga kelgan. Demak, raqamli iqtisodiyot sharoitida, nafaqat auditning nazariy masalalari, uning amaliyoti, metodi va auditorlik jarayonida ham katta o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-282 son qarori.

² Курбанов З.Н. Рақамли иқтисодиёт шароитида бухгалтерия ҳисобининг муаммолари. “Логистика ва иқтисодиёт” электрон илмий журнал..2020 й. 3-сон. 96-102 бетлар.

³ Панков В. В. Трансформация института аудита в условиях применения цифровых технологий. Журнал “Аудит” №12-2019.

Yu Long Gohning yozishicha, “Auditning raqamli transformatsiyasi audit jarayonining muhim qismini yetkazib berishda texnologiyani qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Raqamlashtirishning eng qadimgi va yetuk shakllaridan biri ma’lumotlar tahlili va ularning turli ko‘rinishlari atrofida aylanadi. Barcha audit protseduralari metodologiyaning bir qismi sifatida turli darajadagi tahlillarni o‘z ichiga oladi¹.”

R.Ovcharyk, K.Nazarova, V.Nehodenko, T.Kopotiienko, B.Melnichuklar-ning qayd etishicha: “Soliq auditi — bu korxonaning soliq hisobotini uning ishonchligini tasdiqlash va kelajakda nazorat qiluvchi davlat organlari tomonidan hisoblanishi mumkin bo‘lgan soliqlar va jarimalar shaklida byudjetga qo‘shimcha to‘lovlar to‘g‘risida ogohlantirish maqsadida mustaqil tekshirish².”

V.A.Tarashenko o‘zining ilmiy ishida soliq auditini quyidagicha izohlaydi: “Soliq auditi — bu davlat nazorati organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi ularning faoliyatining amaldagi qonunchilik va belgilangan standartlarga muvofiqligini tekshirishni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha munosabatlar tizimi. Soliqlar, yig‘imlar (majburiy to‘lovlar) summalarini hisoblashning to‘g‘riligini va ularning byudjetga to‘lanishining to‘liqligini, soliq va moliyaviy hisobotlarni to‘ldirish va taqdim etishning to‘g‘riligini aniqlash, tekshirish natijalarini umumlashtirish, uning natijalari bilan tanishish³.”

N.Karmazina byudjet bilan hisob-kitoblar auditining zamonaviy yondashuvlari va auditorlik faoliyatida qo‘llaniladigan vazifalar, usullar va tartiblarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishni amalga oshirdi. U audit usullari va usullarining samarali kombinatsiyasidan foydalangan holda samarali audit protseduralarini ishlab chiqishning uslubiy yondashuvlarini asoslab berdi⁴.

K.P.Xotamovning fikricha “Soliq auditi – bu mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning barcha elementlari va imtiyozlarni to‘g‘ri qo‘llanilganligi soliq va buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga mosligini tekshirishdir⁵.”

F.Akramov soliq auditiga quyidagi ta‘rifni bergan: «Soliq auditi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan soliq va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblanishi, o‘z vaqtda va to‘liq byudjetga to‘lanishida soliq qonunchiligiga rioya qilinishini mustaqil tekshirish hamda soliq masalalari bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdir⁶». Ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, soliq auditi auditorlik tekshiruv va soliq masalalar bo‘yicha xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Soliq auditining ijobiy samarasi to‘g‘risida iqtisodchilarning fikrlarini keltirib o‘tamiz.

X.J.Kleven va boshqalar tadqiqotlarida shuni ko‘rsatadiki, soliq tekshiruvlari keyingi soliq yilida Daniya soliq to‘lovchilari orasida o‘z-o‘zidan hisobot qilingan daromadlarni oshirdi⁷.

A.Advani va boshqalar Buyuk Britaniyada o‘z-o‘zini ish bilan band qilgan soliq to‘lovchilarning daromadlari auditdan keyin kamida 5 yil davomida oshib borishini aniqlagan⁸.

J.DeBaker va boshqalar AQShda soliq to‘lovchilarining muvofiqligi auditdan keyin uch yil davomida yaxshilanganligi va oxir-oqibat avvalgi (va undan past) darajalarga qaytarilganligini aniqladi¹.

¹ Yu Loong Goh. Is Digital Transformation a Benefactor or Disruptor to the Audit? 04/12/23.

<https://www.pwc.com/vn/en/services/risk-assurance/it-risk-assurance-services/digital-transformation-benefactor-or-disruptor-to-audit.html>.

² Ovcharyk, R., Nazarova, K., Nehodenko, V., Kopotiienko, T., & Melnychuk, B. (2024). Taxation audit in the system of independent economic control under martial law: essence, problems, prospects. *Finance of Ukraine*, (2), 115-128. <https://doi.org/10.33763/finukr2024.02.115>.

³ Тарашенко В. А. Податковий аудит: підходи до тлумачення. *Ефективна економіка*. 2020. No 3. URL: <https://doi.org/10.32702/2307-2105-2020.3.53>

⁴ Karmazina, N. V. (2018). Heneruvannia audytorskykh protsedur u konteksti audytu rozrakhunkiv iz biu-dzhetom za podatkamy ta platezhamy [Generation of audit procedures in the context of audit of settlements with the budget for taxes and payments]. *Vcheni zapysky Tavriiskoho natsionalnoho universytetu imeni V.I. Vernadskoho. Seriya: Ekonomika i upravlinnia – Scholarly notes of V.I. Vernadsky Tavri National University. Series: Economics and management*, vol. 29(68), 1, 119-122. Retrieved from http://nbuv.gov.ua/UJRN/UZTNU_econ_2018_29_1_24 [in Ukrainian].

⁵ Hotamov K.R. “Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish” dissertatsiya i.f.d., T.: 2016.136 b.

⁶ Akramov F. Soliq xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish. 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2022 yil

⁷ Kleven, H.J., Knudsen, M.B., Kreiner, C.T., Pedersen, S., Saez, E., (2011) Unwilling or unable to cheat? Evidence from a randomized tax audit experiment in Denmark. *Econometrica* 79 (3), 651–692.

⁸ Advani, A., Elming, W., Shaw, J., (2017) The Dynamic Effects of Tax audits. No. W17/24. The Institute for Fiscal Studies, London, UK.

So‘nggi tadqiqotida AQSH soliq to‘lovchilarining auditning auditdan keyingi hisobotning xatti-harakatlariga ta‘siri audit natijalariga bog‘liqligi yoki yo‘qligini tekshiradi va ular soliq tekshiruvlarining o‘ziga xos to‘xtatuvchi ta‘siri jami ijobiy ekanligini, ammo auditdan keyingi muvofiqlik ekspertiza natijalariga bog‘liqligini aniqlaydilar. Xususan, tekshirish natijasida qo‘shimcha soliq hisobini olgan soliq to‘lovchilar keyingi yillarda ko‘proq daromad ko‘rsatadi, qo‘shimcha hisob-kitob olmaganlar esa kamroq hisobot beradi. Shuningdek, samarasiz soliq tekshiruvlari tavakkalchilikni rag‘batlantiradi va audit davomida kam hisobot bergan soliq to‘lovchilar ba‘zi oldingi tadqiqotlarda aniqlangan auditdan keyingi muvofiqlikning pasayishiga hissa qo‘shadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimiz metodologiyasi bo‘lib, soliq audit bo‘yicha nazariyalari va tamoyillari hisoblanadi. Soliqqa tortish nazariyasi bo‘yicha nazariy asoslar umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida soliq audit bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlillar va natijalar. Soliq audit bo‘yicha Soliq kodeksining 140-moddasida: “Muayyan davr uchun soliq va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lashning to‘g‘riligini tekshirish soliq auditidir. Soliq audit soliq to‘lovchilarning (soliq agentlarining) yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) nisbatan o‘tkaziladi”² deb e‘tirof etilgan. Soliq auditini nazariy masalalarini o‘rganish asosida uni auditning alohida turi degan xulosaga keldik va audit tizimi modelini keltirdik. (1-rasm)



1-rasm. Audit tizimi modeli³.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 1-sonli qarori⁴ning 2-ilovasi “Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida NIZOM”da soliq audit quyidagi tahrirda berilgan: “Soliq audit — soliq to‘lovchining (soliq agentining) muayyan davrdagi moliya va soliq hisobotlarining soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka barcha jihatlaridan muvofiqligi va haqqoniyligini, soliq solish maqsadlarida buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida hisobga olishda soliq majburiyatlarining to‘g‘ri shakllantirilishi va aks ettirilishini soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan o‘rganish orqali soliqlarni to‘g‘ri hisoblash va to‘lashning to‘g‘riligini tekshirishdir”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-maydagi “Majburiy raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-190-son qarorida 2026-yil 1-yanvardan boshlab majburiy raqamli markirovkalash qoidalarini buzish holatlarini soliq organlarining axborot tizimi orqali aniqlash bo‘yicha masofaviy soliq tekshiruvini o‘tkazish tartibi joriy etish va Soliq qo‘mitasiga Biznes-ombudsman bilan birgalikda masofaviy soliq tekshiruvini o‘tkazish tartibini ishlab chiqish belgilab berilgan⁵. Bu esa soliq auditini bosqichma bosqich raqamli auditga o‘tishda yana bir qadamdir.

Ko‘pincha, soliq auditini tekshirish sifatida qabul qilishadi. Biroq, soliq auditini o‘tkazilishi soliq to‘lovchilar uchun samarali ta‘sir etuvchi vosita sifatida qabul qilish zarur.

Xulosa va takliflar. Ko‘pincha, audit jarayonida, oldingi hisobot davrlaridagi xatolarni

¹ DeBacker, J., Heim, B.T., Tran, A., Yuskavage, A., (2018) Once bitten, twice shy? The lasting impact of IRS audits on individual tax reporting. J. Law Econ. 61 (1), 1–35.

² O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi. O‘RQ-599, 2019-yil 30-dekabr. 2025.

³ Rasm muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 1-son qarori.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-maydagi “Majburiy raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-190-son qarori.

joriy hisobot davrida tuzatish bilan bog‘liq xatolar aniqlanadi. Shu bilan birga,

1. Buxgalter buxgalteriya hisobidagi xatolarni tuzatuvchi yozuvlarni va tuzatishlar kiritilgan hisobot davri uchun soliq hisobotlarini solishtirishi kerak.
2. Agar soliq to‘lovchi ilgari topshirilgan soliq hisobotlaridagi xatoliklarni aniqlagan bo‘lsa, u soliq idorasiga ushbu soliq davrlari uchun aniqlashtirilgan hisobotlarni taqdim etishi shart.

Natijada, qo‘shimcha soliq hisobini olgan soliq to‘lovchilar keyingi yillarda ko‘proq daromad ko‘rsatadi, qo‘shimcha hisob-kitob olmaganlar esa kamroq hisobot beradi. Samarasiz soliq tekshiruvlari tavakkalchilikni rag‘batlantiradi va audit davomida kam hisobot bergan soliq to‘lovchilar ba‘zi oldingi tadqiqotlarda aniqlangan auditdan keyingi muvofiqlikning pasayishiga hissa qo‘shadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda “soliq auditi”ga quyidagi mazmundagi ta‘rifni shakllantirdik: “**Soliq auditi** – bu soliq to‘lovchilar tomonidan soliq va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblanishi va byudjetga to‘lanishida soliq qonunchiligiga rioya qilinishi, moliyaviy va soliq hisobotidagi ma‘lumotlarni ishonchligini tekshirishdir”.

<p>Р.Джалилов</p> <p>Теоретические вопросы аудита косвенных налогов в нашей республике</p> <p>Аннотация. В данной статье рассмотрены правовые и теоретические аспекты независимых проверок налоговой отчетности предприятия иностранными и отечественными учеными-экономистами в налоговой системе с целью подтверждения ее достоверности, платежей в бюджет в виде налогов и штрафов, которые могут быть дополнительно начислены государственными органами. Также разработано авторское определение налогового аудита.</p> <p>Ключевые слова: налоговая система, налоговый контроль, налоговая отчетность, налоговый аудит, налоги и штрафы, цифровая трансформация аудита, налогообложение, аудиторские организации.</p>	<p>R.Jalilov</p> <p>Theoretical issues of audit of indirect taxes in our republic</p> <p>Abstract. This article explores the legal and theoretical aspects of independent inspections in the tax system by foreign and domestic economic scientists for the purpose of confirming the tax report of the enterprise and its reliability, payments to the budget in the form of taxes and fines that can be considered additional by state bodies. Also developed an author's definition of tax audit.</p> <p>Keywords: tax system, tax control, tax reporting, tax audit, taxes and penalties, digital transformation of audit, taxation, audit organizations.</p>
--	---

Бобур Фарходович Боронов – СамИСИ профессори в.б., и.ф.д. (DSc)

Дилноза Гафуровна Худайназарова – СамИСИ мустақил тадқиқотчиси

Хушвақт Мансурович Ёдгоров – “Samarkand England Eco Medical” МЧЖ ҚҚ бош ҳисобчиси

ФАРМАЦЕВТИКА КОРХОНАЛАРИНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ СУБЪЕКТЛАРИ СИФАТИДАГИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация. Мақолада фармацевтика корхоналари фаолиятининг умумий тавсифи, ушбу тармок корхоналарининг мамлакат миллий иқтисодиёти равнақида тутган ўрни ва аҳамияти, фармацевтика маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми ва улар ҳисоби, шунингдек фармацевтика корхоналарининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги ташкилий ва ҳуқуқий масалалари, ушбу корхоналарда бухгалтерия ҳисобини юритишнинг ўзига хос хусусиятлари ёритилган.

Калит сўзлар: фармацевтика фаолияти, фармацевтика корхоналари, дори воситалари, даромадлар бухгалтерия ҳисоби, харажатлар бухгалтерия ҳисоби, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.

Кириш. Ҳозирги кунда бутун дунёда инсонларнинг соғлом ҳаёт тарзини барпо этишлари, уларнинг умрларини узайтириш борасида муҳим стратегиялар, давлат дастурлари ҳамда турли фаолиятлар бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқилмоқда. Ушбу долзарб муаммолар ечимини топиш ҳамда мазкур ижтимоий жараёнлар бўйича ижобий натижаларга эришиш бир қанча омилларга боғлиқ бўлиб, бу каби омилларга атороф-

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.